


KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIIY
RIVOJLANISHINING ASOSIIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY TURIZM

Baxtiyorova Gulsevar, Xaqberdiyeva Zuhra

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabalari

Norbekov Xursandmurod

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda ziyorat turizmi rivojlanishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar hamda bu soha istiqboliga doir qabul qilingan qonuniy-me‘yoriy hujjatlar hamda ziyorat turizmining mamlakat rivojida o‘rni va ahamiyati haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekistonda ziyorat turizmi, ziyoratgohlar, diniy turizm.

Annotation: The article describes the conditions created for the development of pilgrimage tourism in Uzbekistan, as well as the adopted legal and regulatory documents regarding the prospects of this field, as well as the role and importance of pilgrimage tourism in the country’s development.

Keywords: Pilgrimage tourism, shrines, religious tourism in Uzbekistan.

Аннотация: В данной статье описаны условия, созданные для развития паломнического туризма в Узбекистане, а также принятые нормативно-правовые документы относительно перспектив этой сферы, а также роль и значение паломнического туризма в развитии страны.

Ключевые слова: Паломнический туризм, святыни, религиозный туризм в Узбекистане.

Hozirgi kunda butun dunyoda, shuningdek O‘zbekistonda ham turizm sohasiga e‘tibor tobora kuchayib bormoqda. Turizm O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi va o‘shida muhim o‘rin tutadi va keyingi yillarda turizmning boshqa sohalari qatori mamlakatda ziyorat turizmini rivojlantirishga katta e‘tibor berilmoqda. Hozirgi kunga kelib, dunyoda ibodat va ziyoratgohlarni o‘rganishga qiziqish kuchaygan, chunki muqaddas joylar insonlar kundalik hayotining ajralmas qismi bo‘lib kelmoqda. Boshqa mamlakatlarda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham ziyorat qilsa arzigulik joylar juda ko‘p. Bu maskanlarning har biri o‘ziga xos tarix va ramziy ma‘noga ega bo‘lib, o‘zining ma‘naviy qadriyatlari bilan ziyoratchilarni o‘ziga tortadi. Masalan, ba‘zi sayyohlar Toshkent shahrida saqlanayotgan „Usmon Qur‘oni“ ni ko‘rish uchun tashrif buyurishsa, boshqalar imom Buxoriy, imom Termiziy, payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning amakivachchalari Qusam ibn Abbosning qabrini ziyorat. Shuningdek, yurtimizning Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa ko‘pgina viloyatlarida ham sayyohlar ko‘p tashrif buyuradigan diqqatga sazovor joylar ko‘p. Shuningdek, mamlakatimizda mashhur me‘moriy ansamblar Toshkent, Samarqand, Xiva, Buxoro, Termiz, Shahrisabz, Qo‘qon va boshqa shaharlarda joylashgan. Jahonga mashhur me‘morchilik durdonalaridan Poy-Kalon, Islomxo‘ja, Labi-hovuz, Registon, Jomiy, Suzuk-Ota me‘moriy ansamblari,

Paxlavon Mahmud majmuasi va boshqa ko‘plab me‘morchilik ansambllari bor. Bularning barchasi O‘zbekiston hududining o‘rta asrlarda Buyuk Ipak yo‘lining markaziy bo‘g‘ini bo‘lganligi, shuningdek, 14-16-asrlar va temuriylar davrida islom me‘morchiligining gullab-yashnashi bilan bog‘liq. 16-asrda Shayboniylar, Ulug‘vor madrasa va minoralar, muqaddas maqbaralar, muhtasham ansambl va yodgorlik majmualari, sirli manzilgohlar, qal‘alar va saroylar-ko‘plab me‘moriy yodgorliklar har bir sayyohga mamlakatning istalgan nuqtasiga sayohat qilish uchun o‘ziga xos yo‘nalish tanlash imkonini beradi.

Mamlakatimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros ob‘ektlari mavjud bo‘lib, ularning aksariyati YuNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. O‘tkazilgan xalqaro tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, ziyorat turizmi bo‘yicha sayohat qiluvchilar soni yildan yilga o‘sib borgan. Bunga misol 2017 yili musulmon sayyohlarning soni 131 million kishini tashkil etgan bo‘lib undan keladigan jami daromad 142 milliard dollarga yetgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, mazkur turdagi turizm sohasi eng tez rivojlanadigan xalqaro turizm industriyasining segmenti hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida diniy qadamjolarga davlat tomonidan katta e‘tibor berilmoqda. Buyuk ajdodlarimiz qo‘nim topgan maskanlarni qayta tiklash, obodonlashtirish, ta‘mirlashga jiddiy e‘tibor berilganligi tufayli ziyoratgoh maskanlar 1.5 mlrd musulmon dunyosini o‘ziga tortmoqda. Hozirgi kunda ziyorat turizmini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib olgan ekanmiz avvalo mamlakatimizda diniy turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirishga jiddiy e‘tibor qaratish lozim. Xususan, Janubi -Sharqiy Osiyo va G‘arbiy Osiyo mamlakatlari ziyoratchilarni jalb etish maqsadida jozibador infratuzilmalar ishlab chiqishimiz kerak. Buning uchun har bir viloyat, tuman va qishloqlardagi kishilar tomonidan muqaddas hisoblanib kelinayotgan ziyoratgohlarni aniqlash, umumlashtirish, respublika va viloyat diniy turistik kartalarini yaratish hamda ziyoratchilarga zarur sharoitlar yaratish, transport imkoniyatlarini o‘rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Diniy ziyoratgohlar kam mablag‘ hisobiga katta daromad manbaiga aylanishi shubhasiz. Mamlakatimizning barcha viloyatlarida o‘nlab, yuzlab diniy qadamjolar mavjud. Islom dunyosida katta xizmat qilgan, avliyo darajasiga ko‘tarilgan siymolarimiz abadiy qo‘nim topgan maskanlarini faqatgina mahalliy darajada, ya‘ni tuman yoki viloyat miqyosida bilamiz, xolos. Binobarin, bunday muqaddas ziyoratgohlarni respublika va xalqaro darajadagi diniy ziyoratgoh ob‘ektlariga aylantirish mumkin. Shu bilan birga, respublika hududidagi yirik ziyorat ob‘ektlariga olib boruvchi yo‘nalishli avtotransport qatnovi tizimini yo‘lga qo‘yish, hududidagi aholini boshqa hududga tashkillashtirilgan sayohat qilishlari uchun transport qatnovlarini yo‘lga qo‘yilishi ta‘minlanadi. Bundan tashqari, mamlakatimizda joylashgan islom madaniyati va tarixi bilan bog‘liq madaniy meros ob‘ektlari Islom hamkorlik tashkilotining Islom madaniy meros ro‘yxatiga kiritish choralari amalga oshiriladi. Hozirgi kunda tez suratlarda ommalashib borayotgan turizm sohasi hisoblangan ziyorat turizmini rivojlantirish mazkur sohada yuqori salohiyatga ega davlatlar uchun qulay imkoniyatdir.

O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqilmoqda va respublikamizga tashrif buyuradigan turizm imkoniyatlari

to‘g‘risida jahon hamjamiyatining xabardor qilish masalasiga e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda yangi sayyohlik brendini rivojlantirish, tashrif buyuruvchilar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, tashrif buyuruvchilar talablarini inobatga olgan holda mavjud sayyohlik yo‘nalishlarini takomillashtirishga katta e‘tibor qaratildi. Mustaqillik yillarida juda ko‘pgina tarixiy joylar va ziyoratgohlar qaytadan ta‘mirlanib, asl holatiga keltirildi. Ushbu qadamjolar xushmanzara, obod, ziyoratgoh maskanlariga aylantirildi. Ular qatoriga Bahoviddin Naqshbandiy, G‘ijduvoni, Imom al-Buxoriy, Hakim at-Termiziy, Zangiota kabi aziz avliyolar va imomlar maqbaralari musulmon ahlining beqiyos, go‘zal ziyorat qiladigan va ma‘naviy ruhlantiradigan joylarga aylantirildi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, ziyorat turizmi hamma vaqt sayohatning eng faol turlaridan biri bo‘lib kelgan. Vaholanki, mamlakatimiz diniy ziyoratgohlarga boy mintaqa hisoblanib, kelajakda nafaqat diniy balki ziyorat turizmini rivojlantirishga yanada e‘tiborni kuchaytirish ham moddiy, ham ma‘naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Александров А.Ю. Международный туризм. Уч. пособие для вузов.- М: Аспект Пресс, 2000
2. Асророва Л. Тарикатнинг етти пири.- Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси, 2021.Б. 280;
3. Таниева Г.М. Урта Осиё халқларининг хаж зиёрати.-Тошкент; О'з kitob ,2021.-3286.
4. Berdiev, K.A. (2022) TRADITIONAL CARPETS OF THE LIVESTOCK POPULATION OF THE NURATA OASIS IN LATE XIX BEGINNING OF XX CENTURY. Journal of Social Research in Uzbekistan, 2(1), 8-18;
5. Current Issues in Tourism, 10(4), 343-365;
6. Бабаджанов Б.М. Кокандская ханство; власть, политика, религия. - Токио-Ташкент, 2010 -с. 626-627;
7. Бабкин А.В. Специальные виды туризма. Ростов-на-Дону; Феникс, 2008.-252 с;
8. Berdiev Xayriddin (2022). TARIXIY JOY NOMLARI TAHLILIDA KEKSALIK VA PIRI MURSHIDLIK MUNOSABATLARINING AKS ETISHI. Innovations in Technology and Science Education, 1(1), 218-233.
9. Kamolov D. ETHICS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: EXPLORING THE MORAL AND SOCIAL IMPLICATIONS OF AI IN CONTEMPORARY SOCIETY //SGS-Engineering & Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 02.
10. Khudoyarov R., Kamolov D., Azamatov B. Economic growth, business circulation and economic development //Science technology&Digital finance. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 21-24.
11. Kamolov , D. (2025). VIRTUAL TURIZM (VR) XIZMATLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. Scientific Practical Conference, 1(1), 372-374. <https://d-pressa.com/index.php/spc/article/view/264>